

АХОЛИ САВОДХОНЛИГИ ВА УНИНГ ИЖТИМОИЙ МОHIЯТИ

Rajabova Hulkaroy

*Guliston davlat pedagogika instituti Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Savodxonlik tushunchasi va inson hayotida savodxonlikning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Savodxonlik, Savodxonlik darajasi, "Raqamli O'zbekiston – 2030", ta'lim tashkilotlari

Savodxonlik 1) aholi madaniy saviyasi kursatkichlaridan biri; 2) odamning adabiy til normalariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutq malakalariga egaligi; 3) oddiy matnlarni o'qiy olish yoki ularni o'qish va yoza olish ko'nikmasiga egalik; 4) muayyan soha bo'yicha bilimga egalik "Savodxonlik" tushunchasining mazmunmohiyati jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida uning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Siyosiy qarashlarning noxolisligi va milliy kamsitish ruhidagi yondashuvlar biror mamlakat yoki millat Savodxonlik darajasini belgilashda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, chor Rossiyasida chiqadigan "Vestnik vospitaniya" jurnali 1900-yilda Turkiston o'lkasi nihoyatda qoloq hamda mutlaqo savodsiz elatlardan iborat va ularni savodli qilish uchun kamida 4600-yil kerak degan g'irt soxta xulosani yozgan. Sho'ro davridagi deyarli barcha ilmiy manbalarda esa, 1917-yil Okt. to'ntarishiga qadar O'zbekiston aholisining 1,5—2% gina savodli degan yolg'ondan iborat ma'lumotlar ko'rsatilardi. Holbuki, 1897-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya markazi aholisining Savodxonlik darajasi 21% ga, Turkiston o'lkasi xalqining Savodxonlik darajasi esa 19,5% ga tengligi qayd etilgan. So'nggi davrda olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan, ammo hali ham unchalik to'la bo'lmagan ma'lumotlarga kura, 1913-yil Turkiston o'lkasida 7665 maktab va Madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bu raqam o'lkamiz aholisining Savodxonlik darajasi rasmiy ma'lumotlarda qayd etilganiga qaraganda ancha baland bo'lganligini ko'rsatadi.

Sho'ro hukumati uz siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, aholining Savodxonlik darajasini yuksaltirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirdi. 1919-yil 26 dekabrda RSFSR XKS tomonidan chiqarilgan Dekretda 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan o'qishni bilmaydigan har bir odam o'z xohishi bilan ona tili yoki rus tilida savod chiqarishi lozimligi belgilab qo'yildi. Bu tadbir aholining Savodxonlik darajasini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayni vaqtda, sezdirmay amalga oshirila boshlagan ruslashtirish siyosatining ko'rinishi ham bo'ldi. 1920-yilda mamlakat Maorif xalq komissarligi qoshida Savodsizlikni tugatish komissiyasi tuzildi.

Mamlakatdagi barcha viloyat, shahar va tumanlarda bu komissiya sho‘‘balari vujudga keltirilib, savod chikarish maktablari hamda kurslar tashkil etish bilan shug‘ullandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng aholining Savodxonlik darajasini yuksaltirishga alohida e‘tibor qaratildi. Chunki jamiyat a‘zolarining Savodxonlik darajasi mamlakat taraqqiyotini ta‘minlaydigan asosiy omillardan biri ekanligi anglab yetildi. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul kilinishi (1997) munosabati bilan majburiy ta‘lim muddati bir yilga uzaytirildi. Eng muhimi, ta‘limning mazmuni, uni tashkil etish yo‘li, ta‘lim mohiyatini belgilash borasida yangi konsepsiyaga amal qilina boshlandi. Milliy istiqyaol g‘oyasini singdirish umumdavlat ahamiyatiga ega tadbir sifatida qaraladigan bo‘lishi bilan Savodxonlikning ahamiyati ham sezilarli darajada ortdi. Mamlakatimizda ta‘lim tizimi shunday uyushtirilganki, biror sog‘lom kishi o‘qishdan chetda qolmaydi.

" Savodxonlik " tushunchasi turli joylarda turlicha belgilanadi. Ayrim mamlakatlarda oddiy matnlarni o‘qishni bilgan odam savodli hisoblangan bo‘lsa, ba‘zi yurtlarda o‘qish bilan birga yozishni ham bilgan odam savodli hisoblangan. Shuning uchun ham " Savodxonlik " tushunchasi mohiyatini tayin etish masalasi demografik statistika va aholi ro‘yxati dasturlariga doir xalqaro yig‘ilishlarda bir necha bor ko‘rib chiqilgan. YUNESKO ning 1958-yil Parijda bo‘lib o‘tgan 10sessiyasida barcha mamlakatlarda Savodxonlik tushunchasini bir xillashtirish maqsadida yozuvni tushunib o‘qiy oladigan va o‘zining kundalik hayotini yozma ravishda bayon qila biladigan kishilarni savodli hisoblashga kelishilgan.

Ilm-fan tinimsiz rivojlanayotgan, axborot texnologiyasi takomillashib, i neon tafakkurining imkoniyati yuksalib borayotgan ayni kunlarda ham Savodxonlik darajasi dunyo miqyosida u qadar yuqori emas. YUNESKOning tegishli tizimlari bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez ko‘payishi, bolalarning ta‘lim tizimiga to‘liq jalb etilmasligi sababli S.ning pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Hatto yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda ham savodsiz kishilar miqdori aholi qatlamining kattagina foizini tashkil etadi. Shuning uchun ham 1966-yil YUNESKO ning Bosh anjumanida 8 sentabr Xalqaro savod tarqatish kuni ekanligi belgilab qo‘yildi. Aholini raqamli savodxonligini oshirish va texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish hozirgi zamonaviy dunyoning asosiy talab va mezonlariga aylandi. Oddiy misol sifatida internetdan foydalana olish ko‘nikmasini keltirish mumkin. Ba‘zi bir tadqiqotlarga ko‘ra joriy yilning yanvar holatiga mamlakatimizda 26,74 mln. Internet foydalanuvchisi va 5,35 mln. ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi mavjud bo‘lib bu umumiy internet foydalanuvchilarining 20 foizini tashkil etadi.

Bu degani internet foydalanuvchilari soni umumiy aholi soniga nisbatan deyarli 75 foizini tashkil qilsa da hozirgi zamonning keng tarqalgan ko‘nikmalaridan biri bo‘lmish ijtimoiy tarmoqlardan aholining qariyb 15 foizi foydalana oladi.

Shu munosabat bilan aholining raqamli savodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqsadlarda respublikaning barcha tuman (shahar)larida raqamli texnologiyalar o'quv markazlari faoliyati bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi.

Davlat uchun aholi savodxonligining past darajasi, to'lov qobiliyatini rivojlantirishga to'siqning mavjudligi moliya bozorlar imkoniyatini cheklaydi va tartibga solish samaradorligini pasaytiradi, iste'molchilar huquqini cheklaydi, shaxsiy qatnashuvga asoslangan jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tishga yo'l qo'ymaydi. Iqtisodiy nuqtai nazardan moliyaviy xizmatlar borasidagi bilim darajasini yetarli emasligi aholining keng qatlamlarini ularni iste'mol qilishga past darajada jalb etilganligini bildiradi hamda iqtisodiy o'sish salohiyatini belgilovchi jamg'arish, investitsiyalar darajasi va sifatini cheklaydi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivojlanishi aholini pensiya jamg'arish, sug'urta va ipoteka tizimlarida ishtirok etishini talab qiladi. Chunki aholining ushbu tizimlardagi ishtiroki pensiya jamg'arish, ijtimoiy va tibbiy sug'urta, turar joy bilan ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish kabi masalalarni hal qilishga yordam beradi. O'rta sinf uchun xos bo'lgan jamg'arishni kengaytirish va uni samarali ishlatish mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, makroiqtisodiy muvozanatga erishish va moliya tizimining mustahkamlanishiga asos bo'ladi.

Aholining jamg'arishga yuqori darajada moyilligi, jamg'arish va sug'urtalash dastaklaridan keng foydalanishi aholining moliyaviy savodxonligini yuqori darajada bo'lishini nazarda tutadi. Bunday savodxonlik aholiga moliyaviy institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, bank va sug'urta sektorlarining xizmatlaridan, pensiyani sug'urtalash tizimidan keng miqyosda va unumli foydalanish imkoniyatini beradi. O'rta sinfga kiruvchi uy xo'jaliklari moliyaviy savodxonligini oshirish orqali shaxsiy budjetlaridan samarali foydalanishadi, uzoq muddatli maqsadlaridan kelib chiqqan holda shaxsiy moliyaviy qarorlarni qabul qilishadi, shaxsiy qarzdorlik darajasini ortib ketishini oldini olishadi, moliyaviy institutlar tomonidan taklif qilinadigan xizmatlar va mahsulotlarni farqlab, ortiqcha xavf-xatarlarni oldi olinadi. Hayotning har bir bosqichida aholining turmush farovonligini ta'minlash ustun darajada shaxsiy moliyaviy qarorlarning samaradorligiga bog'liq bo'lmoqda. Bu esa moliyaviy savodxonlikni mamlakatni uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanishida muhim o'rin egallashini aks ettiradi. Oxirgi o'n yillikda moliya bozorida iste'molchilar sektorini kengayishi, moliyaviy mahsulotlar turlari va murakkabligini ortishi, aholi daromadlari va yalpi jamg'arm alarining o'sishi aholining qabul qilgan moliyaviy qarorlarida shaxsiy javobgarlikni ortganligini aks ettiradi. Ushbu holat ham aholi moliyaviy savodxonligini oshirish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi

Bugungi kunda respublika bo'yicha **205 ta** raqamli texnologiyalar o'quv markazlarida **400 ga yaqin** yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lib ularda 2022 yilda

jami **144 ming nafardan ortiq** tinglovchilar, shu jumladan, **29 ming nafari** davlat xodimlari va **115 ming** yoshlar malakasi oshirildi.

2023 yil davomida ushbu markazlarda jami **180 ming nafar** yoshlar va xodimlar IT yoʻnalishi boʻyicha oʻqitilishi rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari taʼlim tashkilotlari, OAV va boshqa resurslar orqali raqamli maydonda kuzatilib turgan kiberjinoyatlarni oldini olish va ulardan saqlanish maqsadlarida mediasavodxonlik darslari va axborot maʼlumotlari tashkillashtirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida aholi orasida raqamli shaxsiy maʼlumotlarni uchinchi shaxslarga bermaslikdan tortib fishing va boshqa kiberjinoyatlarni oldini olishga qaratilgan zaruriy koʻnikmalar shakllantirilmoqda.

Shu bilan birgalikda “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri aholining raqamli savodxonligini oshirishdan iboratdir.

Jumladan, Strategiyaga binoan davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarini **100 foiz** kompyuter sinfi bilan taʼminlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlangʻich kompyuter savodxonligi koʻnikmalarini shakllantirish ishlari olib borilmoqda.

Yoshlar orasida raqamli savodxonlikni targʻib qilish, hamda kompyuter dasturlash va IT-sohasiga keng jalb qilish maqsadida “Bir million dasturchi” loyihasi joriy qilindi va ushbu loyiha doirasida yoshlarga dasturlash tillarini oʻrgatish ishlari amalga oshirildi.

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 2021-2022 yillarda yoshlarni kompyuter dasturlash asoslariga bepul oʻqitish boʻyicha sohaga qiziqadigan yoshlarni aniqlash, oʻqitish va ish bilan taʼminlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi.

Hozirda “Bir million dasturchi” loyiha doirasida **2,5 mln.** nafardan ortiq foydalanuvchi roʻyxatdan oʻtgan boʻlib, shundan **1,7 mln.** nafardan ortiq ishtirokchi loyiha doirasida taʼlim olib, bitiruvchi sertifikatlarni qoʻlga kiritgan.

Shu bilan birgalikda “Bir million dasturchi” doirasida va IT-Parkning taʼlim rezidentlarida IT sertifikatni qoʻlga kiritgan yoshlarga kompyuter xaridi uchun **8,2 mln soʻm** miqdoridagi imtiyozli kredit ularning shaxsiy plastik kartasiga oʻtkazib berishi tartibi yoʻlga qoʻyildi.

“Bir million dasturchi” loyihasini mantiqiy keyingi bosqichini amalga oshirish maqsadida uzbekcoders platformasi orqali “Coursera” onlayn kurslarida yoshlar uchun taʼlim olish imkoniyati yaratildi.

2023-2024 yillarda platformaning barcha kontentlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi **10** ming dona professional kurslar uchun lisenziyalar olinadi, 2023-2025 yillar davomida **1,2 mln.** yoshlar **8 ta** yoʻnalish boʻyicha onlayn kurslarda oʻqitiladi.

Ma'lumot uchun: 2019-2022 yillarda "Bir million o'zbek dasturchi" loyihasi doirasida raqamlashtirish bo'yicha boshlang'ich bilimga ega bo'lib, sertifikatlarni qo'lga kiritganlar soni 1 mln. nafardan ortiqni tashkil etdi.

Raqamli savodxonlik - zamonaviy dunyoda hayot uchun, raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar to'plamidir.

Ushbu kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish borasida olib borilayotgan kompleks ishlar natijasida IT sohasiga bo'lgan qiziqish va kelajakda ushbu kasb egalari bo'lib yetib chiqish poydevori qurilmoqda.

Shu bilan birgalikda olib borilayotgan ishlar natijasida aholi orasida raqamli platformalardan to'g'ri foydalanish madaniyati targ'ib qilinmoqda. Bunday vaziyatda raqamli savodxonlik kiberjinoyatchilar uchun muhim to'siq va Internet maydonida jinoyatchilikni kamaytirish usuli sifatida xizmat qilmoqda.

World Population Review 154 ta davlat orasida savodxonlik darajasi bo'yicha reytingni aniqlagan.

Unda dunyo mamlakatlaridagi 15 yoshdan yuqori bo'lgan odamlarning o'qish va yozish qobiliyati aniqlangan.

Unda O'zbekistonning reyting ko'rsatkichi 100%ni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari Shimoliy Koreya, Andorra, Grenlandiya davlatlarida ham 100% 15 yoshdan yuqori aholi savodli.

Eng past daraja esa:

Nigeriya, Chad va Gvineya.

Ushbu mamlakatalarda savodxonlik darajasi 30 % dan kam.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida:

Tojikiston - 99,80%

Qozog'iston - 99,80%

Turkmaniston - 99,70%

Qirg'iz Respublikasi - 99,60% natijani qayd etmoqda.

Bu borada Dunyo bo'ylab normal ko'rsatkich 86,3%.

Bunda 15 va undan katta yoshdagi erkaklarning savodxonlik darajasi 90% ni tashkil qiladi. Ayollarda - 82,7%.

Joriy yilda O'zbekistonda savodxonlik darajasi 99,99 foizga yetdi. Bu haqda UNESCO ma'lum qildi.

Ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakat hukumati maktabgacha ta'lim muassasalari sonini to'rt barobar ko'paytirishga erishdi. Aholi sonining tez o'sishiga qaramay, maktabgacha ta'lim va parvarish bilan qamrab olinish darajasi 2017 yildagi 24 foizdan 2021 yilda 62 foizga yetdi.

UNESCO tavsiyasiga binoan, O‘zbekiston hukumati so‘nggi uch yilda oliy ta’lim muassasalari sonini ikki barobar oshirish va 2021 yilga kelib oliy ta’limga qamrab olish ko‘rsatkichini 28 foizgacha yetkazish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rdi. Bu raqamni 2030 yilgacha 60 foizgacha oshirish rejalashtirilgan.

Mamlakatda maktablarning yangi modeli — istiqbolli jahon tajribasidan olingan STEAM o‘quv dasturiga ega prezidentlik, ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilgan.

Tashkilot 2020 yilda COVID-19 pandemiyasining maktab tizimiga salbiy ta’siriga qaramay, matematikadan 56 ta, kimyo va biologiyadan 28 ta, informatika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha 14 ta shunday maktablar tashkil etilganiga e’tibor qaratgan.

2021 yilda dunyo bo‘ylab 15 yosh va undan katta shaxslarning savodxonlik darajasi 86.3%ni tashkil qiladi; faqat AQShda bu ko‘rsatkichlar 99% ga baholanmoqda (Jahon aholisining sharhi, 2021). Mening kamtarona fikrimcha, menimcha, bu insoniyatning eng katta yutuqlaridan biri (oyga borish va balki muzqaymoq ixtiro qilish bilan birga). Biroq, hali qilinadigan ishlar ko‘p, chunki hali 773 million kattalar va bolalar savodsizlikka ega. Bizning global hamjamiyat sifatida maqsadimiz o‘qishning katta foydasi tufayli savodxonlik darajasini 100% ga ko‘tarish bo‘lishi kerak. O‘qish qobiliyati odamga insoniyat tarixini qamrab oladigan bilimlar bazasidan foydalanish imkoniyatini beradi va bu ma’lumotdan yangi ko‘nikmalar va tushunchalarni rivojlantirish uchun foydalanadi. O‘qish bizga dunyoni shaxsiy nuqtai nazarimizdan tashqarida o‘rganish va cheksiz ijodkorlik manbalarini bilish imkonini beradi.

1966 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 8 sentyabrni Xalqaro savodxonlik kuni deb e’lon qilib, savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha sa’y -harakatlarni davom ettirishga va’da berdi (Birlashgan Millatlar Tashkiloti, nd). COVID-19 ning katta ta’siri tufayli, biz uchun Xalqaro savodxonlik kuni maktablarning yopilishi va ta’lim uzilishlarining chet elda ham, AQShda ham o‘qish rivojlanishiga salbiy ta’sirini tan olish muhimroq. stavkalari sog‘liqni saqlash natijalarining yaxshilanishi, ayniqsa, bolalar o‘limining kamayishi bilan bog‘liq (Gioveti, 2020). Odamlar o‘qiy oladigan bo‘lsalar, ular tibbiyot xodimlari bilan, shuningdek tibbiy ko‘rsatmalar bilan yaxshiroq muloqot qilishlari va tushunishlari mumkin (Gioveti, 2020). Bu, ayniqsa, global pandemiya davrida, virusga qarshi kurashish uchun tibbiy ma’lumotni etkazish juda muhim. Savodxonlik darajasining oshishi gender tengligini ham yaxshilaydi, chunki bu ayollarga o‘z jamiyatining faol a’zolari bo‘lish va ish izlashga imkon beradi (Gioveti, 2020). Hisob -kitoblarga ko‘ra, mamlakatda talaba qizlarning har 10% o‘sishi uchun yalpi ichki mahsulot o‘rtacha 3% ga oshadi (Gioveti, 2020).

Ammo o‘qish har birimiz uchun nima qilishi mumkin? Ilg‘or o‘qish qobiliyatlari malakani oshirish va ish imkoniyatlarini yaxshilashga imkon beradi (Gioveti, 2020). O‘qish, shuningdek, so‘z boyligini, muloqotni va empatiyani yaxshilaydi va yoshga

bog'liq kognitiv pasayishni oldini oladi (Stenboro, 2019). Savodxonlik - bu avloddan - avlodga o'tadigan ko'nikma, shuning uchun agar sizda farzandlaringiz bo'lsa, ularni o'qishga undashning eng yaxshi usullaridan biri bu ularga o'qish qiziqarli bo'lishi mumkinligini o'rgatishdir (Indy K12, 2018). Men ulg'ayganimda, eng yaxshi ko'rgan va eng erta xotiralarim onam bilan kutubxonaga borganimiz va ikkalamiz ham kitob tekshirganimiz edi. Uning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi men uchun juda ta'sirli edi va men o'shandan beri umrbod o'qiyman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Demografiya.uz
- 2.Aholi geografiyasi va demografiya asoslari Mo'minov Doniyor
- 3.Wikipediya.uz.